BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

URALOV RUSTAM ABDURAIMOVICH

QUYI SURXON FLORASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 581.9:582.6/9:(575.151)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Uralov Rustam Abduraimovich
Quyi Surxon florasi 3

Уралов Рустам Абдураимович
Флора нижнего Сурхана 21

Uralov Rustam Abduraimovich
Flora of the lower Surkhan . …….....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….....44

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

URALOV RUSTAM ABDURAIMOVICH

QUYI SURXON FLORASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/B1020 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot–ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ibragimov Akram Javlievich** biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Karimov Farhod Isomiddinovich** biologiya fanlari doktori, professor
	Esanov Husniddin Qurbonovich biologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “28” oktyabr kuni soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (78-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “15” oktyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil “13” oktyabr 17-raqamli reyestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: So‘nggi o‘n yilliklarda dunyoda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, xususan, biologik xilma-xillikning qisqarishi, tabiiy ekotizimlarning degradatsiyasi va inson faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan landshaft transformatsiyalari jahon ilmiy hamjamiyatining e’tiborini tabiat resurslarining saqlanishi va barqaror boshqaruviga qaratmoqda. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot natijasida biosferaning tabiiy muvozanati buzilmoqda. Ayniqsa, o‘simlik resurslaridan noo‘rin foydalanish biologik xilma-xillikning izdan chiqishiga, ayrim turlar populyatsiyalarining qisqarishiga va hatto yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro Tabiatni Muhofaza qilish Ittifoqi (IUCN) tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarda dunyo biologik xilma-xilligini saqlash ustuvor maqsad sifatida e’tirof etilib, noyob va endem turlarni muhofaza qilish, ularning yashash muhitini ekologik monitoring qilish, genetik resurslar holatini ilmiy baholash zarurati alohida qayd etilgan. Bunda ayniqsa, floristik jihatdan boy, biroq o‘rganilishi yetarli bo‘lmagan lokal hududlarning ahamiyati ortib bormoqda. Floraning taksonomik tarkibini chuqur o‘rganish, turlar tarqalishini aniqlash va ularning zamonaviy klassifikatsiyasi asosida baholash hozirgi zamon biologik fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi, floristik, geobotanik va fitogeografik jihatdan noyob hudud bo‘lib, relikt, endem va paleobotanik ahamiyatga ega ko‘plab o‘simlik turlari tarqalgan. Pomir-Oloy, Tiyon-Shon, Kopetdag va Qizilqum singari biogeografik hududlar mintaqaning fitoxilma-xillik markazlari hisoblanadi. Biroq, so‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, yaylovlarning ortiqcha ekspluatatsiyasi, yer degradatsiyasi va suv tanqisligi natijasida hudud florasiga salbiy ta’sir kuchaymoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo florasining qariyb 20 foizi endem turlardan iborat bo‘lib, mingdan ortiq turlar IUCN (2022) ro’yxatidan yo‘qolish xavfi ostida qayd etilgan.

O‘zbekiston florasi tarkibida 4400 dan ortiq yuksak o‘simlik turlari mavjud bo‘lib, ularning salmoqli qismini (10 %) endem va kamyob turlar tashkil etadi. Respublikada so‘nggi yillarda biologik resurslarni muhofaza qilish, davlat kadastrini yuritish, Qizil kitobni nashr etish va genofondni asrab qolishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[1] Prezident farmonida “.... o‘zining geografik va iqlim xususiyatlariga ko‘ra, ayniqsa, cho‘l va adir ekotizimlarining nozikligi va suv resurslarining cheklanganligi sababli o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini saqlash va qayta tiklash” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalar doirasida “Quyi Surxon florasi”ning taksonomik tarkibini o‘rganish, turlar tarqalishini to‘r tizimidagi xaritalar orqali ko‘rsatish, shuningdek, kamyob va yo‘qolish xavfi ostidagi turlar populyatsiyalarini xalqaro

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli "2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni.

standartlar asosida tahlil qilish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq etish, dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi[2] Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi 915-son “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi[3] -qarori, 2018 yil 19 dekabrdagi №1034-son “O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[4] -qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘tgan davrda tabiiy hududlar florasini tahlil qilishga va floristik konspektlar tayyorlashga qaratilgan tadqiqotlarga misol sifatida V. Funk va boshqalar (2013), C.S. Chang va boshqalar (2014), G.B. Bruce va boshqalar (2017) kabi xorijiy olimlarning ishlarini keltirish mumkin. Endem turlarning tarqalishini o‘rganish L. Peruzzi va boshqalar (2014), F. Memariani va boshqalar (2016) tomonidan amalga oshirilgan. MDH mamlakatlarida tabiiy floralar konspektini tuzishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni A.P. Seregin (2013-2014), A.A. Ivashchenko (2017), A.L. Ivanov (2019), V.M. Valyukov, S.V. Saksonov (2020) kabi olimlarning ishlarida uchratish mumkin. Markaziy Osiyoda shunga o‘xshash ishlar Q.Z. Zokirov (1955, 1961), R.V. Kamelin (1990), G.A. Lazkov, B.A. Sultonova (2011, 2014) tomonidan bajarilgan. O‘zbekistonda bunday tadqiqotlar K.Sh. Tojibaev va boshqalar (2010–2019), A.N. Sennikov (2019) va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo daryosi havzasining quyi qismi florasi tanlab olindi. Tadqiqotlar Surxon-Sherobod botanika-geografik rayonini, Ko‘gitang botanika-geografik rayonining janubi-g‘arbiy qismini va Bobotog‘ botanika-geografik rayonining janubi-sharqiy qismini, shuningdek, qator geograflarning tasniflari asosida ushbu hududlarni qamrab oladi. Bu hududlar geobotanik va floristik jihatdan birlashgan bo‘lib, endemizm va biologik xilma-xillikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi, shuningdek, xalqaro rayonlashtirish tizimlarida yagona tekislik zonasi sifatida tasniflanadi. Ushbu hudud bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar asosan o‘simlik qoplamiga bag‘ishlangan. Mintaqa florasi gerbariysining asosiy kollektorlari sifatida M. Kultiasov (1914), M. Popov (1915),

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi 914-son “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi qarori

[4] 2018 yil 19 dekabrdagi №1034-son “O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari

A. Ashirova, A. Vvedenskiy (1927), S. Lepeshkin (1930), A. Lixacheva, V. Paziy (1931), N.A. Merkulovich (1931), B.V. Bochantsev, V. Tarasevich (1932), E. Demurina (1934), A. Arxireyev (1940), P. Gomolitskiy (1941), O. Bondarenko (1948), E. Korotkova (1954), I. Gringof (1958), M. Nabiyev, G.M. Shermatov, Sh.M. Qazaqboyev (1972), A.J. Ibragimov (2009), N.T. Achilova (2021) qayd etilgan.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotlar o‘z vaqtida muhim ilmiy ma’lumotlar taqdim etgan bo‘lsa-da, ularning uzoq davom etganligi va turli mualliflar tomonidan o‘tkazilganligi sababli, mavjud ma’lumotlar tarqoq va tizimlashtirilmagan. Bu esa Quyi Surxon florasining turlari tarkibini va turlarning tarqalish qonuniyatlarini to‘liq va chuqur ochib berishga imkon bermaydi. Shu sababli, Quyi Surxon florasining turlari tarkibini keng miqyosda aniqlash, zamonaviy floristik konspektni ishlab chiqish va turli xil tahlillarni o‘tkazish dolzarb vazifalardan sanaladi. Xususan, noyob va endem o‘simlik turlarining holatini baholash, shuningdek, ularning tarqalishi haqida ma’lumot beruvchi tarmoqli GAT (geoaxborot tizimli) xaritalarni tuzish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ular mintaqaning noyob ekologiyasini tushunish va uni saqlash bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Botanik instituti tomonidan “Janubiy-G‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panjoldi okruglarining florasini to‘r tizimli xaritalash” (2021–2024) davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Quyi Surxon florasining tur tarkibini to‘r tizimli xaritalash asosida aniqlash va floraning keng ko‘lamli tahlillarini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Quyi Surxon florasining tur tarkibini aniqlash va uning konspektini tuzish.

Floradagi adventiv turlarini aniqlash va ularning floradagi tutgan o‘rnini baholash.

Florani to‘r tizimli xaritalash asosida taksonomik, geografik va biomorfologik tahlillarini amalga oshirish.

Kamyob, endem hamda “Qizil kitobi”ga kiritilgan turlarning tarqalishini aks ettiruvchi GAT (geoaxborot tizimli) xaritalarini yaratish.

Tadqiqotning ob’ekti. Quyi Surxon florasining yuksak o‘simliklari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Quyi Surxon florasining konspekti, turlarni tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritasi, taksonomiyasi, geografiyasi, floraning qiyosiy va hayotiy shakllari bo‘yicha tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada floristik tadqiqotlarni tekshirishning marshrutli, yarim statsionar, sistematik, areologik, biomorfologik usullari, shuningdek, GAT (geoaxborot tizimi) asosidagi zamonaviy to‘r tizimli xaritalash va turlarning yo‘qolib ketish xavfi darajasini baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: Yig‘ilgan gerbariy

namunalariga asoslanib, mintaqa florasining 69 oila, 349 turkumga mansub 805 turdan iborat to‘liq konspekti tuzildi.

O‘zbekiston florasida uchrashi qayd etilmagan 3 tur, Pomir-Oloyning Hisor tizmasi uchun avval keltirilmagan 6 tur aniqlandi va ro‘yxatga kiritildi.

Ilk bor Quyi Surxon florasining adventiv fraksiyasi tarkibi aniqlanib, flora 18 oila 54 turkumga mansub 74 turdan iborat ekanligi isbotlandi.

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan 22 tur, mintaqa uchun endem bo‘lgan 7 turning yangi o‘sish joylari aniqlandi va ularning tarqalishining GAT (geoaxborot tizimli) xaritalari yaratildi.

Hududning 5x5 km² ega to‘r tizimli xaritasi ishlab chiqildi, unda indekslangan holda o‘simliklar kadastrini yuritish uchun yuksak o‘simliklarga oid elektron shakldagi *kml* va *shp* fayllari yaratildi.

Quyi Surxon tekislik va tog‘li mintaqalarni bog‘lovchi unikal hudud ekanligi, o‘ziga xos ekologik muhitning shakllanganligi, endem va kamyob turlarga boyligi hamda antropogen omil ta’siri ostida qolgan mintaqa ekanligi asoslantirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Quyi Surxon florasidagi O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga (2019) kiritilgan va endem turlarning Quyi Surxon hududida tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritalari yaratilgan.

Quyi Surxon florasidagi “Qizil kitob”ga kiritilgan (*Cynomorium songaricum* Rupr va *Calligonum paletzkianum* Litv.) kabi turlarning yangi o‘sish nuqtalari aniqlandi va O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining navbatdagi chop etilayotgan nashri uchun yangi ma’lumotlar taqdim etildi.

Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining “Qizil ro‘yxati” (IUCN, 2022) Critically Endangered (O‘ta xavf ostida) maqomi bilan kiritilgan *Zygophyllum bucharicum* B. Fedtsch. turining maqomi yangilandi, bu uning yo‘qolib ketish xavfi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu maqom turning milliy va xalqaro qonunchilik doirasida himoya qilinishini ta’minlab, uni noqonuniy terish, sotish yoki yashash muhiti buzilishidan himoya qiladi.

Quyi Surxon florasidan to‘plangan gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariy (TASH) fondini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagilar bilan izohlanadi: zamonaviy floristik tadqiqot usullari qo‘llanilganligi hamda yangi topilmalar haqidagi ma’lumotlar yetakchi mahalliy va xorijiy nashrlarda (Web of Science, Scopus bazalarida indekslangan jurnallarda) e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi davlatning amaliy va fundamental loyihalari doirasida bajarilgan. Tadqiqotlarning asosiy natijalari O‘zbekiston ma’muriy viloyatlari bo‘yicha davlat kadastri uchun rasmiy ilmiy nashrlarni tayyorlashda foydalanilgan. Olingan ma’lumotlar https://www.gbif.org/ axborot-tahliliy tizimiga kiritilgan va davlat tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari faoliyatida qo‘llanilmoqda.

Dala tadqiqotlari davomida to‘plangan gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariy (TASH) fondiga topshirildi, shuningdek, O‘zbekiston Milliy gerbariy (TASH), Sankt-Peterburg (LE) va Moskva (MW) gerbariy fondlarida

saqlanayotgan namunalar bilan solishtirildi.

Quyi Surxon florasi bo‘yicha mavjud barcha ma’lumotlar to‘r tizimli xaritalash asosida raqamli formatga o‘tkazildi. Tadqiqot hududining har bir qismi 5x5 km² o‘lchamdagi 179 ta indeksga bo‘lindi va 1897-yildan buyon to‘plangan floristik ma’lumotlar ushbu indekslar kesimida tahlil qilindi. Bu usul taqdim etilgan ma’lumotlarning ishonchliligi va tahlilning aniqligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Quyi Surxon florasini kompleks o‘rganish natijasida annotatsiyalangan konspekt tuzildi, tur tarkibi har tomonlama tahlil qilindi va mintaqaning o‘ziga xos floristik xususiyatlari aniqlandi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot bir nechta yangi turlar topilishi hisobiga O‘zbekiston florasi ro‘yxatini to‘ldirdi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Surxondaryo viloyatining janubiy qismida tarqalgan yuksak o‘simlik turlarini muhofaza qilish va respublikaning botanik-geografik va ma’muriy hududlarini to‘r tizimli xaritalash usulida baholash, yuksak o‘simliklarning elektron formatdagi *kml*, *shape* fayllari ishlab chiqilganligi navbatdagi tadqiqotlarini keng yo‘lga qo‘yishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quyi Surxon florasini o‘rganish natijasida muhim ilmiy ma’lumotlar olindi. Mintaqa florasida tarqalgan 60 oila, 303 turkumning 588 turga mansub 6500 dan ortiq gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariyining (TASH) noyob ilmiy obyekti fondiga topshirildi. Bu ma’lumot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 15-martdagi 4/1255-608-sonli ma’lumotnomasi bilan tasdiqlangan. Natijada, gerbariy namunalari ushbu noyob obyektning O‘rta Osiyo bo‘limi o‘simliklar kolleksiyasini boyitishga xizmat qildi.

“Quyi Surxon florasini o‘rganish bo‘yicha dala tadqiqotlari davomida 48 oila, 194 turkumning 323 turga mansub 2225 ta namuna bo‘yicha fotomateriallar va ma’lumotlar to‘plandi va raqamlashtirildi. Ushbu materiallar Global biologik xilma-xillik axborot tizimi (GBIF) portaliga joylashtirildi (Global biologik xilma-xillik ma’lumotlar bazasining 2024-yil 18-sentyabrdagi 014-sonli ma’lumotnomasi). Bu esa GBIF portalidagi turlarning uchraydigan joylari (occurrence records) sonini oshirish, shuningdek, Qizil kitobga kiritilgan turlarning hozirgi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida xalqaro axborot-tahliliy tizimini shakllantirish imkonini berdi.”

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan *Zygophyllum bucharicum* B. Fedtsch. turining hozirgi holati, shuningdek, ushbu turga tashqi muhit omillarining ta'siri Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining (IUCN) 2019-yilgi kategoriyalari va mezonlariga muvofiq baholandi (IUCN 2024 ma’lumotnomasi: T63490A244024776). Natijada, bu tadqiqot hududida tarqalgan mazkur global miqyosda noyob va yo‘qolib borayotgan turning holatini monitoring qilish va uning populyatsiyalarini himoya qilishni ta’minlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy

ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 3 ta mahalliy OAK jurnallarida, 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan (ulardan 3 tasi Scopus bazasida keltirilgan).

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, ularning mamlakat ilmiy-texnologik rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti, predmeti va qo‘llanilgan usullar haqida ma’lumot berilgan. Unda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati ham yoritilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida batafsil ma’lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning «**Quyi Surxon hududida olib borilgan floristik tadqiqotlar, tadqiqot ob’ekti va metodlari**» deb nomlangan birinchi bobi Quyi Surxon hududida o‘tkazilgan botanik tadqiqotlarni, tadqiqot obyekti va usullarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi bo‘limi mintaqada o‘tkazilgan botanik izlanishlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Quyi Surxon florasida bajarilgan ishlarni tahlil qilish ularni ikki davrga bo‘lish imkonini berdi: turli maqsadlarda 1900-2010 va 2013-2021 yillarda o‘tkazilgan klassik izlanishlar va zamonaviy tadqiqotlar. Bu tadqiqotlar natijasida ko‘p miqdorda gerbariy namunalari to‘plangan. Mintaqada to‘plangan namunalar asosida 100 dan ortiq yangi tur ilm-fanga kiritilgan bo‘lib, bu turlar O‘rta Osiyo uchun endem bo‘lgan umumiy turlarning taxminan 25-30 foizini tashkil etadi. Ulardan ba’zilari O‘zbekiston endemlari hisoblanadi: *Allium rhodanthum* Vved., *Cousinia rhodantha* Kult., *Dipcadi turkestanicum* Vved., *Fritillaria baisunensis* Ruksans, *Gypsophila gypsacea* (Vved.) Bondarenko, *Tulipa bactriana* J.J. de Groot.

Mintaqada tadqiqotlar o‘tkazgan olimlar orasida asosiy gerbariy kollektorlari G. Kapyu va P. Bonvalo (1881-1884), A. Regel (1881-1886), V. Lipskiy (1896-1905), M. Popov (1914-1927), N. Merkulovich (1928-1931), A. Vvedenskiy, V. Bochantsev (1928-1930), A. Lepeshkin (1929-1930) hisoblanadi. M. Popov rahbarligida 1914-1916 yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. M. Popov, E. Korovin, M. Kultiasov va I. Sprygin birgalikda Amudaryo vodiysida, Ko‘hitangda, Termiz atrofida, Kelif-Sherobod past tog‘larida tadqiqotlar o‘tkazib, ko‘plab gerbariy namunalari to‘plashgan. M. Popov to‘plangan namunalar asosida *Cleome* L. turkumidan *Cleome gordjaginii* Popov, *Cleome lipskyi* Popov, *Cleome tomentella* Popov kabi taksonlarni ta’riflagan. U shuningdek, ushbu turkum xilma-xillik markazi Quyi Surxon mintaqasida ekanligini nazariy jihatdan asoslab bergan. Shuni ta’kidlash joizki, bu turlarning barchasi muallifning o‘zi tomonidan

to‘plangan. Umuman olganda, 1900-yildan 2010-yilgacha bo‘lgan davrda 1000 dan ortiq turga mansub 10 000 ga yaqin gerbariy namunalari to‘plangan. Bundan tashqari, 5000 dan ortiq manzarali piyoz, lola va iris piyozchalari to‘planib, ular asosida botanika bog‘larida kolleksiyalar yaratilgan (Lipskiy, 1905).

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ham Surxon vodiysida botanik tadqiqotlar to‘xtamadi. M. Xolmuratov (2007), A. Ibragimov (2009), O. Turginov (2017), N.Achilova (2021) kabi olimlarning ishlari bunga misoldir. Ular orasida Quyi Surxon mintaqasi hududining 70% dan ortig‘ini qamrab olgan Surxon-Sherobod botanika-geografik rayon florasiga bag‘ishlangan N.A.Achilova (2021) tadqiqoti alohida e’tiborga loyiq. Uning ba’zi jihatlari chuqurroq tahlil qilish va aniqlashtirishni talab etadi. Xususan, mintaqa uchun 100 dan ortiq yangi tur topilganligi haqidagi ma’lumotlar gerbariy materiallari bilan tasdiqlanmagan. Bu holat ushbu mintaqada chuqurroq va har tomonlama floristik tadqiqotlar o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi va izlanishlarni davom ettirishni talab qiladi. Ushbu dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, dala tadqiqotlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti ilmiy xodimlari ishtirokida “G‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panj okruglarining (Surxondaryo viloyati qismi) florasini to‘r tizimli xaritalash” Davlat dasturi doirasida o‘tkazildi. Institut olimlari bilan hamkorlikda 2022-2024 yillarda jami 6500 dan ortiq gerbariy namunalari to‘planib, O‘zbekiston Milliy gerbariy fondiga topshirildi. Ushbu materiallar milliy fondni Quyi Surxon hududidan olingan yangi namunalar bilan boyitishga imkon berdi.

Bobning **“Tadqiqot obyekti va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida dala tadqiqotlarida va florani keng ko‘lamli tahlil qilishda qo‘llanilgan usullar, taksonlarni aniqlash uchun foydalanilgan adabiyotlar, tadqiqotlarni o‘tkazishda yordam bergan mahalliy va xalqaro mutaxassislar, shuningdek, turli gerbariylarda va raqamlashtirilgan xalqaro axborot resurslarida mavjud bo‘lgan tadqiqot hududidan olingan gerbariy namunalari haqida ma’lumotlar ochib berilgan.

Dissertasiyaning «**Quyi Surxon florasining taksonomiyasi**» deb nomlangan ikkinchi bobi flora konspektini tuzishga, yangi floristik topilmalarga va taksonomik tahlil natijalariga bag‘ishlangan.

Bobning **“Flora konspekti tuzilishi”** deb nomlangan birinchi bo‘limi flora konspektining tuzilishi haqida ma’lumot beradi. Flora konspektidagi oilalar ketma-ketligi qirqquloqsimonlar uchun PPG I (2016), ochiq urug‘lilar uchun Christenhusz va boshq. (2011) va gulli o‘simliklar (yopiq urug‘lilar) uchun APG IV (2016) tizimlariga mos keladi. Konspektda 69 oila 349 turkumga mansub 805 tur keltirilgan; barcha turlar uchun dastlabki manbalari, hayotiy shakllari, areallar tiplari, ekologik sharoitlari, xo‘jalik ahamiyati va gerbariy namunalarini to‘plovchilar ko‘rsatilgan. Bunday format O‘zbekistondagi zamonaviy floristik tadqiqotlar uchun umume’tirof etilgan hisoblanadi (Turginov, 2017; Qodirov, 2020; Abduraimov, 2021; Achilova, 2021).

Bobning **“Aniqlangan yangi floristik topilmalar”** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida dala tadqiqotlari davomida O‘zbekiston va Pomir-Oloy florasi uchun birinchi marta qayd etilgan va floristik yangiliklar sifatida ko‘rilayotgan turlar

haqida ma’lumotlar berilgan. O‘zbekiston florasi uchun 3 yangi tur aniqlandi: *Launaea mucronata* (Forssk.) Muschl., *Symphyotrichum subulatum* (Michx.) G.L. Nesom. (Asteraceae) va *Phalaris paradoxa* L. (Poaceae). Pomir-Oloy uchun 6 yangi tur topildi: *Amaranthus viridis* L. (Amaranthaceae), *Erigeron bonariensis* L. (Asteraceae), *Rorippa austriaca* (Crantz) Besser., *Cardamine hirsuta* L. (Brassicaceae), *Lolium multiflorum* Lam. va *Sporobolus alopecuroides* (Piller & Mitterp.) P.M. Peterson. (Poaceae). Barcha ilmiy manbalar va xalqaro axborot resurslarida bu turlarning O‘zbekiston florasida va Pomir-Oloyning mahalliy floralarida o‘sishi haqida ma’lumotlar yo‘q, shuning uchun bu turlar ilmiy yangiliklar sifatida baholandi. Aniqlangan turlar nafaqat Quyi Surxon, balki butun O‘zbekiston florasi haqidagi ma’lumotlarni boyitishga xizmat qiladi.

Launaea mucronata (Forssk.) Muschl. Man. Fl. Egypt 2: 1057 (1912). Ushbu turning O‘zbekistonga eng yaqin o‘sadigan hududi Afg‘onistonda joylashgan. Tur 2024-yilda o‘tkazilgan dala tadqiqotlari davomida topilgan (Quyi Surxon, Termiz tumani, Kattaqum massivi, 37.368498N, 67.273809 E, (E198) 306 m, (AM200), 2024-yil 8-may, to‘plovchilar: Uralov R., Ibragimov A. Aniqlagan: A. Gaziyev). *Symphyotrichum subulatum* (Michx.) G.L. Nesom. va *Phalaris paradoxa* L. O‘zbekiston florasi uchun yangi adventiv (begona) turlar hisoblanadi. *A. viridis* L., *E. bonariensis* L., *R. austriaca* (Crantz) Besser, *C. hirsuta* L., *L. multiflorum* Lam. va *S. alopecuroides* (Piller & Mitterp.) P.M. Peterson. esa Pomir-Oloy hududi uchun yangi adventiv turlar sifatida baholanib, ular har yili o‘z areallarini kengaytirmoqda.

Bobning **“Floraning taksonomik tahlili”** deb nomlangan uchinchi bo‘limi floraning taksonomik tahliliga bag‘ishlangan. Dala tadqiqotlari davomida to‘plangan materiallar va gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalar asosida Quyi Surxon florasining tur tarkibi aniqlashtirildi. Natijada, Quyi Surxon florasida 69 oila 349 turkumga mansub 805 tur tarqalganligi aniqlandi. Aniqlangan har bir tur gerbariy namunalari bilan tasdiqlangan; 2022-2024-yillarda o‘tkazilgan dala tadqiqotlari davomida 588 turga mansub 6500 dan ortiq gerbariy namunalari to‘plangan. Mintaqa florasining boyligi, Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi (Esonov, 2023) kabi ba’zi tabiiy floralar va Surxon davlat qo‘riqxonasi kabi sun’iy floralar (Ibragimov, 2010) bilan solishtirganda qolishmasligi aniqlandi.

O‘rganilayotgan florada yirik taksonomik birliklarning nisbati O‘rta Osiyo floralariga xosdir. Qirqquloqsimon o‘simliklar (Polypodiophyta) Equisetaceae oilasining 1 turkumi (*Equisetum*)dan 2 tur bilan, Ochiq urug‘lilar (Gymnospermae) Ephedraceae oilasining 1 turkumi (*Ephedra*)dan 4 tur bilan ifodalangan. Jami 2 oila 2 turkumga mansub 6 qirqquloqsimon va ochiq urug‘li o‘simliklar qayd etilgan, bu floraning 0,74 %ni tashkil etadi.

Floraning asosiy qismini gulli o‘simliklar - 799 tur tashkil etadi. Ulardan bir pallalilar (Monocots) 15 oila 66 turkumga mansub 156 tur, ikki pallalilar (Eudicots) esa 52 oila 281 turkumga mansub 643 tur bilan ifodalangan. Bir pallalilar va ikki pallalilarning umumiy nisbati 1:4,12 tashkil etadi.

O‘rtacha hisobda mintaqa florasidagi bir oilaga 5,05 turkum va 11,66 tur (1:5,05:11,66) to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Quyi Surxon

florasi O‘zbekistonning ba’zi tabiiy va sun’iy floralarini ortda qoldiradi: Buxoro vohasi – 1:4,98:8,94 (Esonov, 2017), Janubi-G‘arbiy Qizilqum – 1:5,2:10,5 (Granitov, 1967), Janubi-Sharqiy Qizilqumning qoldiq past tog‘lari – 1:5,14:11,31 (Batoshov, 2016), Surxon davlat qo‘riqxonasi – 1:4,83:9,70 (Ibragimov 2010), Zomin davlat qo‘riqxonasi – 1:4,88:11,57 (Esonqulov, 2012, Xasanov va boshq., 2013), Nurota davlat qo‘riqxonasi – 1:4,62:10,86 (Beshko, 1999). Bu holat mintaqaning geografik joylashuvi va ekologik sharoitlari bilan izohlanadi. Floraning yetakchi polimorf oilalari spektrini 18 tadan ortiq turga ega bo‘lgan 12 oila tashkil etadi, ularda 247 tur (71,76%) jamlangan. Polimorf turkumlarga esa 10 yoki undan ortiq turga ega bo‘lgan 9 turkum kiradi. Bu turkumlarda 127 tur, yoki umumiy turlar sonining 15,78% i to‘plangan (1-jadval).

1-jadval

Quyi Surxon florasining polimorf oilalari va turkumlari spektri

Oilalar	**Turkumlar soni**	**Turlar soni**	**% PO**	**Turkumlar**	**Turlar soni**	**PT%**
Asteraceae	46	111	13,78	*Astragalus*	34	4,22
Poaceae	45	91	11,30	*Artemisia*	17	2,11
Fabaceae	18	76	9,44	*Allium*	12	1,49
Amaranthaceae	28	69	8,57	*Cousinia*	12	1,49
Brassicaceae	38	65	8,07	*Bromus*	11	1,36
Boraginaceae	15	32	3,97	*Euphorbia*	11	1,36
Apiaceae	16	27	3,35	*Tamarix*	10	1,24
Caryophyllaceae	12	27	3,35	*Ranunculus*	10	1,24
Lamiaceae	13	24	2,98	*Veronica*	10	1,24
Polygonaceae	6	19	2,36	-	-	-
Ranunculaceae	5	19	2,36	-	-	-
Plantaginaceae	5	18	2,23	-	-	-
Jami 12 ta	**247**	**578**	**100/71,76**	**Jami 9 ta**	**127**	**15,78**
Qolgan oila: 57	**102**	**227**	**28,24**	**Qolgan turkum:340**	**678**	**84,22**
jami 69	**349**	**805**	**100**	**678**	**805**	**100**

Quyi Surxon florasidagi polimorf oilalarning ketma-ketligi shuni ko‘rsatadiki, birinchi uchlikni Asteraceae (111 tur – 13,78%), Poaceae (91 tur – 11,30%), Fabaceae (76 tur – 9,44%) oilalari egallaydi. Bu umumiy qonuniyatlarga mos keladi va tog‘li O‘rta Osiyo florasining xarakterli xususiyatlaridan biri sifatida e’tirof etiladi (Xoxryakov, 2000). Ikkinchi uchlik – Amaranthaceae (69 tur – 8,57%), Brassicaceae (65 tur – 8,07%), Boraginaceae (32 tur – 3,97%) – hududning tekislik va tog‘ oldi zonasida joylashganligi bilan izohlanadi (Kamelin, 1973; Turginov, 2017). Shu bilan birga, ikkinchi uchlikda Amaranthaceae oilasining yetakchi o‘rinni egallashi (*Salsola, Climacoptera* turkumlari) floraning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi, bu oila vakillari uchun qulay muhit mavjudligi va adventiv (begona) turlarning (Amaranthus) ko‘pligi bilan bog‘liq. Brassicaceae oilasining yuqori o‘rni ham tekislik florasining o‘ziga xos xususiyatlarini va kuchli antropogen ta’sirni bildiradi, buni *Alyssum, Strigosella, Lepidium* kabi turkumlarning sezilarli darajada xilma-xilligi tasdiqlaydi.

Keyingi o‘rinlarda Apiaceae (27 tur – 3,35%), Caryophyllaceae (27 tur – 3,35%), Lamiaceae (24 tur – 2,98%), Polygonaceae (19 tur – 2,36%),

Ranunculaceae (19 tur – 2,36%), Plantaginaceae (18 tur – 2,23%) oilalari joylashgan. Ularning yetakchi oilalar spektridagi o‘rni tog‘li hududlarning ta’siri va keng tarqalgan turlarning ko‘pligini ko‘rsatadi. Floraning taksonomik tuzilishi mintaqaning Janubi-G‘arbiy Hisor tog‘ tizmalariga tutashgan tekislik va tog‘ oldi mintaqasida joylashganligini aks ettiradi. Xususan, Asteraceae oilasi tog‘li hududlarga xos bo‘lsa, Amaranthaceae oilasining yetakchiligi Turon florasining ta’sirini bildiradi. Bu xususiyat Quyi Surxon florasi tog‘li O‘rta Osiyo va Turon florasi o‘rtasidagi o‘tish davri florasi ekanligini ta’kidlaydi.

Dissertatsiyaning **“Floraning transformatsiyasi va adventiv turlari tahlili”** deb nomlangan keyingi bo‘limi floradagi adventiv turlarni tahliliga bag‘ishlangan. Har bir mahalliy florada aborigen va adventiv fraksiyalar mavjud. Adventiv turlar tarkibini aniqlash uchun asosiy manbalar sifatida S. Mayorov va boshqalar (2012), Yu. Vinogradova va boshqalar (2010-2011), A. Notov, T. Dvirnaya, N. Rakov, shuningdek, H. Esanov va A. Kechaykin (2016), H. Sidiqjonov va G. Noralieva (2023–2024) va boshqalarning ishlari foydalanilgan.

Quyi Surxon florasida aborigen fraksiya 51 oila 296 turkumga mansub 733 turdan iborat. Adventiv fraksiya esa 18 oila 54 turkumga mansub 74 turdan tashkil topadi. Floraning umumiy tarkibida aborigen turlarning ulushi 90,81%, adventiv turlarniki esa 9,19 %ni tashkil etadi, bu nisbat 1:9,87 ga teng. Adventiv turlar orasida Puriregional (25), Golarktika (10) va Palearktika (8) areal tiplariga mansub turlar ustunlik qiladi. Ular umumiy adventiv fraksiyaning 83,33 %ini tashkil etadi.

Tabiiy floraning qariyb 1/10 qismini adventiv turlar tashkil etishi mintaqa ekotizimlarining sezilarli darajada o‘zgarib borayotganini hamda hududda adventizatsiya jarayonlari davom etayotganini ko‘rsatadi. Adventiv turlar orasida terofitlar (73 %) ustunlik qiladi, bu esa ularning atrof-muhit sharoitlariga yuqori darajada moslashish qobiliyatiga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Quyi Surxon florasida adventiv turlarning mavjudligi inson faoliyatining ta’sirini aks ettiradi, biroq aborigen turlarning sezilarli darajada ustunligi (90,81 %) hozircha floraning umumiy barqarorligini va uning adventizatsiya darajasi pastligini ta’minlaydi. Bu holat Quyi Surxon florasining ekologik holati hozircha jiddiy xavotirga sabab bo‘lmasligini, lekin doimiy monitoring va nazorat muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.


Dissertatsiyaning **«Quyi Surxon – florasining geografik hamda biomorflogik tahlili»** deb nomlangan uchinchi bobida floraning biomorfologik hamda xorologik tahlillariga bag‘ishlangan.

Bobning “Floraning geografik tahlili” deb nomlangan birinchi bo‘limida Quyi Surxon florasi turlarining geografik tarqalishi batafsil ko‘rib chiqiladi. Tahlilning asosi o‘simlik turlarini areal tiplari bo‘yicha taqsimlash va ularning tadqiqot hududi xaritasidagi tarqalishidan iborat. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Quyi Surxon florasini tashkil etuvchi 805 tur 7 ta areal sinfiga birlashtirilgan 30 ta areal tipini o’z ichiga oladi.

Statistik tahlil natijalari ikkita areal sinfining ustunligini yaqqol ko‘rsatdi: Qadimgio‘rtayerdengizi (286 tur, bu butun floraning 35,52% ini tashkil etadi) va palearktika (167 tur, 20,86%). Qadimgio‘rtayerdengizi areal sinfining ustunligi

O‘rta Osiyoning tog‘ oldi va tekislik floralariga xos bo‘lib, Poaceae (*Bromus, Hordeum*), Asteraceae (*Cirsium, Carthamus*), Caryophyllaceae (*Spergularia, Silene*), Fabaceae (*Astragalus, Vicia*), Amaranthaceae (*Bassia, Suaeda*), Brassicaceae (*Strigosella, Alyssum*), Ranunculaceae (*Ranunculus*), Boraginaceae (*Anchusa, Heliotropium*), Papaveraceae (*Papaver, Roemeria*), Euphobiaceae (*Euphorbia*) va Cyperaceae (*Carex*) kabi oila vakillarining keng tarqalishi bilan izohlanadi.

Bu yetakchi sinflardan keyin quyidagilar joylashgan: O‘rtaosiyo areal sinfi (154 tur, 19,13%), Pluriregional sinfi (81 tur, 10,06%), Pomir-Oloy sinfi (67 tur, 8,32%), Golarktika sinfi (28 tur, 3,47%) va Tog‘li O‘rta Osiyo sinfi (22 tur, 2,73%) (1-rasm). O‘rganilayotgan florada Palearktik va Pluriregional turlarning yuqori foizda bo‘lishi antropogen ta’sir natijasidir.



1-rasm. Floraning areologik tahlili

Quyi Surxon florasining geografik tahlili shuni ko‘rsatadiki, mintaqada nisbatan tor tarqalish arealiga ega bo‘lgan noyob turlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida 7 endem tur aniqlangan bo‘lib, bu Quyi Surxon florasining o‘ziga xos xususiyatlarini va uning ilmiy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“floraning hayotiy shakllari”** tahliliga bag‘ishlangan. C. Raunkiaer (1934) tasnifi bo‘yicha Quyi Surxon florasining biomorfologik tahlili uning hayotiy shakllari spektrida terofitlarning sezilarli darajada ustunligini (53,91% – 434 tur) ko‘rsatdi. Bu holat mintaqaning tekislik va tog‘ oldi zonasida joylashganligi, qishloq xo‘jaligi maydonlarining katta ekanligi va kuchli antropogen ta’sir bilan izohlanadi. Terofitlar orasida Asteraceae, Poaceae, Brassicaceae va Amaranthaceae oilalari eng ko‘p turlarni o‘z ichiga oladi, bunda Eron-O‘rta Osiyo areal tipiga mansub Amaranthaceae oilasi turlari muhim o‘rin tutadi.

